

Muhammadnur M. MURODKHONOV,

*Student of the International Islamic
Academy of Uzbekistan.*

A.Qadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan.

E-mail: murodkhonovmukhammadnur@gmail.com

Scientific advisor: Nigora J. YUSUPOVA,

*Professor of ICESCO Department for Islamic
studies and Studying Islamic Civilization,*

International Islamic Academy of Uzbekistan.

A.Qadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan.

E-mail: nigora.jaloliddin.qizi@mail.ru

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2024-2/6

ISLOM HUQUQI TIZIMIDA INSON HUQUQLARI

HUMAN RIGHTS IN THE ISLAMIC LEGAL SYSTEM

ПРАВА ЧЕЛОВЕКА В ПРАВОВОЙ СИСТЕМЕ ИСЛАМА

KIRISH

Inson huquqlarini ta'minlash va uni himoya qilish kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida eng asosiy va bosh masalalaridan biri bo'lib kelgan. Demokratik huquqiy davlatda inson huquqini himoya qilish mexanizmi mukammal yo'lga qo'yilgan bo'lishi lozim. Har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotida inson huquqi muhim ahamiyat kasb etib, u shu jamiyatning demokratik taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi asosiy mezon, davlatning insoniyligini belgilovchi «indikator» hisoblanadi. Inson huquqining milliy yurisdiksiya ta'siriga olingani unga nisbatan huquqiy munosabatlar vujudga kelganini bildiradi. Inson huquqi bilan bog'liq vujudga kelgan va vujudga kelishi mumkin bo'lgan munosabatlarning aksariyat qismini inson huquqining qonunchilik tarmog'i tartibga soladi. Inson huquqlari tushunchasi barcha huquq tizimlarida o'z o'rnini topgan. Buni islom huquqi, anglo-sakson (umumiy huquq), romano-german (mintaqaviy huquq), tizimlarida ko'rish mumkin. Inson huquqi butun insoniyatning orzu-umidlarini o'zida jamlagan keng qamrovli tushunchadir. Shu ma'noda bugungi kunda yangi O'zbekistonda inson huquqlariga rioya etish va himoya qilishning milliy mexanizmini yanada mustahkamlash va takomillashtirish bo'yicha tizimli

choralar qabul qilindi. Bugunga kelib O'zbekiston BMTning majburiy mehnatga qarshi konvensiyaga qo'shildi, mamlakatimiz ishtirokchisi bo'lgan inson huquqiga bag'ishlangan 80dan ortiq asosiy xalqaro hujjatlar, BMTning ushbu sohadagi 10ta asosiy xalqaro shartnomalarining qoidalari inson huquqi va erkinliklarini samarali himoya qilishni ta'minlovchi yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va milliy qonunchilik normalarida o'z ifodasini topdi. Milliy taraqqiyotimizning bugungi kun yangi islohotlar bosqichida insonning ta'lim va tarbiya olish masalasi amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning asosiy garovi sifatida qaralmoqda. Xususan, O'zbekiston insonning ta'lim olish huquqi sohasidagi BMTning butun dunyo dasturida faol qatnashmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev haqli ravishda ta'kidlaganidek, »...inson huquqlarini ta'minlash samaradorligini yanada oshirish uchun milliy strategiyamiz bo'lishi lozim, milliy strategiya doirasida inson huquqlarini o'qitilishining uzluksiz tizimini yaratish, umumta'lim maktablari, oliy o'quv yurtlari, kadrlari qayta tayyorlash markazlarida «Inson huquqlari», «Bola huquqlari», «Ayollar huquqlari» nomli maxsus o'quv kurslarini joriy etishning vaqti-soati keldi» (Mirziyoyev Sh., 2019).

ASOSIY QISM

Islom huquqi normativ huquq tizmi sifatida VII – X asrlarda shakllangan. Islom huquqida insoniyat, nabotot, hayvonot uchun qilinadigan barcha muomalalar alohida yoritib berilgan bo'lib, ularga zarar yetkazilsa maxsus tartiblar orqali javobgarlik belgilangan. Bola huquqlari, nikoh, xalqaro huquq va umumiy barcha huquq sohalari batafsil yoritilganini ko'rishimiz mumkin. Inson huquqi islom ta'limotida muhim o'rin egallaydi. Qur'oni karim va hadisi shariflarda inson qadr-qimmati, haq-huquqlari masalasiga alohida keng o'rin berilgan. Inson huquqlari haqida gap ketar ekan, u huquqlarni belgilashda insonning o'ziga nisbatan munosabati ham muhim o'rin tutadi. Biz huquqlari haqida gapirayotgan insonning asli qanday? Uning bu dunyoda tutgan o'rni qanday? Bu kabi savollarga beriladigan javoblar inson haq-huquqlarining asosini belgilashda katta ahamiyatga ega bo'ladi (Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, 2019:48).

Islomda inson huquqlari haqida gap ketar ekan, har bir shaxs inson sifatida bu huquqlardan

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom huquqida yoritib berilgan inson huquqlari va undagi institutsional sohalar haqida soʻz boradi. Inson huquqini amalda taʼminlashni xalqaro institutlar va asosiy xalqaro hujjatlarsiz tasavvur etib boʻlmaydi. Inson huquqi boʻyicha xalqaro institutlarning huquqiy maqomida va asosiy xalqaro hujjatlarning mazmunida inson huquqini himoya qilishning talablari va mexanizmi belgilab berilgan boʻladi. Inson huquqi islom taʼlimotida muhim oʻrin egallaydi. Qurʼoni karim va hadisi shariflarda inson qadr-qimmatini, haq-huquqlari masalasiga alohida keng oʻrin berilgan. Unda insonning shaxsiy, ijtimoiy huquqlari shariat qonun-qoidalari asosida bayon qilingan.

Oʻrta asrlarda Movarounnahrda yashab ijod qilgan allomalarimiz Majduddin Muhammad Ustrushaniy kabi buyuk mutafakkirlarimizning hozirgi kunda Gʻarb olimlaridan uch asr avval «Bola huquqlari»ga doir ilk fundamental asar sohibi ekanini koʻrishimiz mumkin. Bu Majduddin Muhammad Ustrushaniy asarlarining ilmiy qiymatini yanada oshirib, uni inson huquqlarining muhim segmentlaridan birini tashkil etiladigan yuvenal huquq, yaʼni bolalar huquqi ilmiy yoʻnalishining shakllanishi tarixi boʻyicha benazir manbaga aylantiradi.

Kalit soʻzlar: Majduddin Muhammad Ustrushaniy, Inson huquqlari, Prezident, BMT, Gugo Grotsiy, Tomas Gobbs, islom huquqi, xalqaro huquqi, normativ huquqiy tizim, Qurʼoni karim, hadisi sharif.

Abstract. This article deals with human rights and their institutional spheres in Islamic law. It is impossible to imagine the practical protection of human rights without international institutions and basic international documents. The legal status of international institutes on human rights and the content of the main international documents will determine the requirements and mechanisms for the protection of human rights. Human rights occupy an important place in Islamic teachings. The issue of human dignity and rights is given a special place in the Holy Qurʼan and Hadith. In it, the personal and social rights of a person are stated on the basis of Sharia laws.

We can see that great thinkers such as Majduddin Muhammad Ustrushani, who lived in Mawarannahr in the Middle Ages, were the authors of the first fundamental work on «Child's Rights» three centuries before Western scholars. Majduddin Muhammad further increases the scientific value of Ustrushani's work, turning it into a unique source in the history of the formation of the scientific direction of juvenile law, that is, children's rights, which is one of the important segments of human rights.

Keywords: Majduddin Muhammad Ustrushani, Human rights, President, UN, Hugo Grotius, Thomas Hobbes, Islamic law, international law, normative legal system, Holy Qurʼan, hadith.

Аннотация. В данной статье рассматриваются права человека в исламском праве и их институциональные сферы. Невозможно представить практическую защиту прав человека без международных институтов и базовых международных документов. Правовой статус международных институтов по правам человека и содержание основных международных документов определяют требования и механизмы защиты прав человека. Права человека занимают важное место в учении ислама. В Священном Коране и хадисах отводится особое место вопросам человеческого достоинства и его прав. В исламе личные и социальные права человека изложены на основе правил и законов шариата.

Необходимо отметить, что среди великих мыслителей прошлого, Маджуддин Мухаммад Устуришани, проживавший на территории средневекового Мавераннахра, является автором первого фундаментального труда по «Правам ребенка», написанного на три столетия раньше западных ученых. Данный факт еще больше повышает научную ценность трудов Маджуддина Мухаммада Устуришани и делает их уникальным источником по истории формирования одного из важных сегментов сферы защиты прав человека – ювенального права, т.е. научного направления в области защиты прав ребенка.

Ключевые слова: Маджуддин Мухаммад Устуришани, права человека, ООН, Уго Гроций, Томас Гоббс, исламское право, международное право, нормативная правовая система, Коран, хадисы.

foydalanishi zarurligi taʼkidlanadi. Chunki, bu ilohiy neʼmatdir, undan har bir banda foydalanishi kerak. Islomda inson oʻzining maʼnaviy mavjudot ekanini anglashi va jamiyat ravnaqi yoʻlida bunyodkorona mehnat qilishi (Rustambayev M.X., 2022:68) Insonning yashash huquqi butun insoniyat foydasi va ravnaqi yoʻlida foydalanish uchun berilgan. Islomda insonning quyidagi huquqlari eʼtirof etilgan: yashash huquqi; tenglik huquqi; erkinlik huquqi;

erkin fikrlash huquqi; siyosiy erkinlik huquqi; chet mamlakatlarga chiqish va ulardan boshpana topish huquqi; munosib hayot kechirishni taʼminlovchi mehnat qilish huquqi; odil sudlov huquqi; nikoh tuzish huquqi; oʻz shaʼnini himoya qilish huquqi; ijtimoiy taʼminot olish huquqi; nikoh tuzish huquqi; shaxsiy hayot va xavfsizlik huquqi; oʻz shaʼni va obroʻsiga qilingan tajovuzlardan himoyalaniş huquqi; soʻz erkinligi huquqi; vijdon va eʼtiqod

erkinligi; diniy tuyg'ularni himoya qilish huquqi; davlat ishlarida ishtirok etish huquqi; munosib hayot kechirish huquqi (Rustambayev M.X., 2022:69). Shu kabi o'nlab erkinliklarni ko'rishimiz mumkin. Bu borada biz islom huquqining asosiy manbasi Qur'oni karimga yuzlanar ekanmiz bu haqda ham ochiq-oydin bayonot beradi. Alloh taolo Josiya surasida quydagilarni aytadi:

﴿وَسَخَّرَ لَكُم مَّا فِي السَّمٰوٰتِ وَمَا فِي الْاَرْضِ جَمِيعًا مِّنْهُ﴾

«Va sizga osmonlardagi narsalarni va yerdagi narsalarni – hammasini O'z tomonidan beminnat xizmatkor qilib qo'ydi» (13-oyat).

Demak, Islomda inson huquqlari haqida so'z ketar ekan, dunyodagi barcha narsalar unga beminnat xizmat qilishi uchun yaratilgani aytiladi.

Qur'oni karimning Isro surasida:

﴿وَلَقَدْ كَرَّمْنَا بَنِي عَادَ﴾

«Batahqiq, Biz Banu Odamni mukarram qilib qo'ydik», degan (70-oyat).

Islom dini jahon dinlaridan biri bo'libgina qolmay, u yuksak taraqqiy etgan huquqiy tizim va o'ziga xos huquqiy madaniyat maktabidir. Islom huquqi ibodat masalalarini bayon qilish bilan birga musulmonlarning xatti-harakatini tartibga solishga, ularning turmush tarzini shakllantirishga yo'naltirilgandir (Saidov A.H., 2004:309).

MUHOKAMA

Bugungi kundagi huquqiy tizimlar ijtimoiy munosabatlarning eng muhim masalalarini tartibga solsa, islom huquqi ham hayotning ulkan masalalaridan tortib oddiy maishiy muammolarigacha kirib borib, ular o'rtasida o'ziga xos qoidalar va nizomlarni belgilab bergan. Bugungi kunda ko'tarilayotgan inson huquqlari masalalari besh muhim narsa – sha'n, jon, aql, nasl va molini asrash, muhofaza qilish xususidadir. Abu Homid G'azzoliyning fikricha, mazkur huquqlar himoya qilingan insonda huquq borasida hech qanday kamchilik bo'lmasligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Tarixga nazar solsak, ayol huquqlari turli davlatlarda, turli mintaqalarda turli vaqtda va har xil shakllarda namoyon bo'lib, inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida rivojlangan. Shuning uchun ham «ayol huquqlarini o'rganish mobaynida uni inson huquqlarining universal tushunchasidan ajratib olish noto'g'ri» (Matkarimova G.S., 1998:14).

Inson huquqlari g'oyalari qanchalik ilgari borsa, ayol huquqlari ham shunchalik dolzarb tus oladi. Umuman inson huquqlarining vujudga kelishi va taraqqiy etishi, jumladan ayol huquqlariga bo'lgan munosabat – inson va davlat o'rtasidagi eng muhim alomat bo'lib, bundan taraqqiyotning qay darajada ekanligi, jamiyatning ma'naviy holati va davlatning huquqiy yoki huquqiy emasligini aniqlash mumkin. Adabiyotlarda «ayol huquqi» yoki «ayollar huquqi» tushunchalari aynan izohlangan, ta'riflangan ma'lumotlar juda kam. Olimlarning fikricha, ayol huquqlari – bu, umumiy tarzda, inson huquqlari, shu bilan birga, ayollarning jamiyat va oiladagi alohida mavqeyi hamda ayollargagina aloqador bo'lgan o'ziga xos huquq va erkinliklarning majmuidir (Karakulov L.P., 2004:341). Mazkur ta'rifda mualliflar ayollar huquqlarini aynan inson huquqlari sifatida baholash bilan birga, uning o'ziga xosligini ham nazardan chetda qoldirmaganlar. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, M.Inagamova o'zining tadqiqotida: «Ayol huquqlari bu – inson huquqlarining ajralmas qismi bo'lib, xalqaro va milliy huquqiy normalar asosida shakllangan, ayollarning o'ziga xos xususiyatlarini (reproduktiv, fiziologik va h.k.) inobatga olgan holda tizimlashgan, davlatlar tomonidan kafolatlanadigan hamda xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan qoidalar majmuidir», deya, ta'rif beradi. Uning mazkur ta'rifi quyidagilarga asoslanadi: birinchidan, har qanday huquqiy norma davlat tomonidan ishlab chiqiladi, belgilanadi va himoya qilinadi; ikkinchidan, ayol huquqlari inson huquqlarining barcha elementlarini qamrab oladi, shuning uchun ham ba'zi mualliflar ayol huquqlarini inson huquqlari bilan bir, deb hisoblab, unga alohida ta'rif berishni lozim ko'rishmagan (Yusupova N.J., 2022:30). Bizning fikrimizcha ham ayol huquqlariga yondashuvda yuqoridagi asoslarga tayanib, ayol huquqlari inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida xalqaro va milliy huquqiy normalar asosida shakllangan, ayollarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tizimlashgan, davlatlar tomonidan kafolatlanadigan hamda xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan qoidalar majmui sifatida himoya qilinishi maqsadga muvofiqdir. Islomda inson huquqlari, jumladan tenghuquqlilik masalasi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Tenghuquqlilik millatlar o'rtasida, yosh, fuqarolik, irq, ijtimoiy kelib chiqish, jins va shu kabilar o'rtasida bo'lishi mumkin. Tenghuquqlilik prinsipi bu barcha davlat organlari, jamoat tashkilotlari, fuqarolar va mansabdor

shaxslarning kimligidan qat'iy nazar qonunlarga so'zsiz bo'ysunishi va ularning qonun oldida barobar bo'lishidir. Adolat ramzi bo'lgan ushbu prinsip huquqiy tarbiya natijasida kamolga yetadi (Yusupova N.J., 2022:36).

Ma'lumki, islom ta'limoti shariat me'yorlariga asoslanadi. Professor Abdulhakim Juzjoniyning tadqiqotlarida keltirilishicha, islom shariatining dunyoviy qonunchilikdan o'ziga xos farqli tomonlari bor, ya'ni shariat qonunchiligining asosiy qismi ilohiyligi, juda ham kam o'zgarishi va urf-odat qoidalarini o'zida qamrab olgani kabilardir. (Juzjoni A.Sh., 2002:256).

Arablarida islomdan oldin ayol kishi nafaqat huquqlari poymol qilinishiga, balki insonlik darajasidan mahrum qilinishga mahkum qilingan edi. Misol uchun, arablarida qiz bola tug'ilgan oila motam tutar va keyinchalik or-nomus va iqtisodiy qiyinchilikka sabab bo'lmasin, deb tiriklayin ko'mib yuborilar edi. Qur'oni karim bu odatlarni qattiq qoraladi va man qildi. Musulmon oilalarda qiz bola tug'lsa, o'g'il bola tug'ilgandan ko'ra ko'proq xursand bo'lish joriy qilindi. Qizlarni yaxshilab tarbiya qilganlarga o'g'il bolalarni tarbiya qilganlarga berilgandan ko'ra ko'p va'dalar berildi.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda quyidagilar aytiladi:

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ، قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ: «مَنْ كَانَ لَهُ ثَلَاثُ بَنَاتٍ، فَصَبَّرَ عَلَى لَأْوَانِهِنَّ، لَأْوَانِهِنَّ، أَدَخَلَهُ اللَّهُ الْجَنَّةَ، بِرَحْمَتِهِ إِيَّاهُنَّ»، فَقَالَ رَجُلٌ: «وَابْتِئَانِ يَا رَسُولَ اللَّهِ؟» قَالَ: «وَأَبْنَتَانِ»، فَقَالَ رَجُلٌ: «وَوَاحِدَةٌ يَا رَسُولَ اللَّهِ؟» قَالَ: «وَوَاحِدَةٌ».

«Rasululloh (s.a.v.): «Kimning uchta qizi bo'lsa-yu, u ularning xarxashalariga, og'irliklariga sabr qilsa, Alloh uni ularga ko'rsatgan rahmi tufayli jannatga kiritur», dedilar.

Bir kishi: «Ikkita qizi bo'lsa-chi, ey Allohning Rasuli?» deb so'radi.

«Ikkita qizi bo'lsa ham», dedilar.

Bir kishi: «Bitta bo'lsa-chi, ey Allohning Rasuli?» deb so'radi.

«Bitta bo'lsa ham», dedilar».

Yana bir rivoyatda: «yoki uch singlisi bo'lsa-yu», deb kelgan (Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf., 2019:52-53).

Chunonchi, qizlarning tarbiyasi, ta'limi va madaniyati hamda, yashab, o'sishi uchun zarur bo'lgan har bir narsani ta'minlab berish zarur bo'ladi. Bu esa ayollar bu kelajakning quruvchilari ekanini bilishimiz mumkin. Ularning hayotdagi rollari bir muncha turli ya'ni, ular ona, ham opa-singil, ham umr yo'ldosh kabi obrazlarda namoyon bo'lishadi.

Inson huquqlarining yana bir institutsional sohalaridan biri «Bola huquqlari» hisoblanadi. Bu sohaning alohida ajralib chiqishi ham bir buncha davr talab qilganligini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimiz aholisining qariyb 35 foizini, ya'ni 11 mln. dan ortig'ini 18 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil etadi. Bu ko'rsatkich o'ta salmoqli bo'lib, bolalarni har bir millat taqdirida uning kelajagini belgilovchi omil sifatida tarbiyalash masalasi davlatimiz kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarining birida, bolalar haqida shunday fikr bildirgan:

«Biz amalga oshirayotgan istilohotlarning asosiy maqsadi – bolalarning baxtli kelajagi uchun barcha sharoitlarni yaratib berishdir».

Darhaqiqat, bugungi globallashuv sharoitida mamlakatimizda yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega bo'lgan vatanparvar bolalarni tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish, buning uchun ularga barcha ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy shart-sharoitlarni yaratib berish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan asosiy masalalardan biriga aylandi.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining rivojlanish bosqichlariga nazar solsak, bolalar huquqi kishilik jamiyati tarixida eng qadimiy muammolardan biri hisoblanadi. Bolalar huquqi boshqa toifa insonlar huquqidan farq qilib, ularning huquq, erkinliklari va majburiyatlari alohida tartibda, ma'lum imtiyozlar asosida hamda o'ziga xos xususiyatlar bilan tartibga solinadi. Bola huquqi deganda, bolalarning manfaatlari, erkinliklari va majburiyatlarini tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi tushuniladi (Rustambayev M.X., 2022:139). Jumladan, xalqaro huquq fanining asoschisi hisoblanadigan niderlandiyalik Hugo Grotsiy (1583-1645-yillar) zamonaviy tushunchadagi insonlardan biri sanaladi. Yevropadagi Sakson yillik (1568–1648 yillar) va O'ttiz yillik (1618–1648 yillar) urushlar davrida yashagan mazkur huquqshunosning 1625-yilda chop etilgan «Urush va tinchlik huquqi» asarida inson huquqlari bilan bog'liq bo'lgan adolatli urush haqidagi nazariya ham shakllantirilgan. Chunki, G.Grotsiyning asarlarida bayon qilingan xalqaro huquq nazariyasi negizida insonning tabiiy huquqlari haqidagi ezgu g'oya yotadi. Uning ta'kidlashicha, «tabiiy huquqlar – bu sog'lom tafakkurning ustuvorligi va taqozosidir: shunga muvofiq u yoki bu xatti-harakat o'zining mantiqiyligi yoki mantiqqa

xilofligidan kelib chiqib, ma'naviy sharmandalik yoki ma'naviy zaruratdir» (Hugo Grotius., 2005:150-151). Darhaqiqat, insonning tabiiy huquqlarini o'zida mujassamlashtirgan bunday umumjahon bitik birdan paydo bo'lmagan. Bu jarayon qator bosqichlarni o'z ichiga qamrab olgan. Jumladan, ingliz faylasufi Tomas Gobbs (1588–1679 yillar) Grotsiy g'oyalarini rivojlantirib, ijtimoiy kelishuv nazariyasini shakllantirgan. Uningcha, odamlar o'rtasidagi barchaning barchaga qarshi dushmanlik holati ular o'rtasidagi o'zaro majburiyatlarning yo'qligi tufayli sodir bo'lgan. Shuning uchun o'z xavfsizligi va tinchligini ta'minlash uchun odamlar o'zlariga tegishli bo'lgan individual huquqlarning bir qismidan voz kechib, ularni davlat tasarrufiga beradilar. Bunda odamlar o'z himoyasini ta'minlash va jamiyat xavfsizligi nazoratini amalga oshirish haqida davlat bilan bamisoli bitim tuzganday bo'ladilar (Atayev M., 2021:15).

NATIJA

Islom dini kishilik jamiyatida o'z o'rnini topib, uning dunyoviy va diniy hayotida amaliy suratda tatbiqini topgan ilk asridan boshlab bolalar tarbiyasiga katta ahamiyat berib keladi. Bu ta'limot va uning yo'l-yo'riqlari jamiyat asosining poydevori, istiqboli bo'lgan yoshlarning har tomonlama komil inson bo'lib yetishishlarini talab qiladi. Islom huquqshunosligining iste'dodli tadqiqotchilaridan biri Syukiyaynen aytganidek, «...inson huquqlari bo'yicha tugal konsepsiyaning shakllanishi nafaqat G'arb tafakkuri, balki boshqa madaniyatlar va noxristian dinlarning ham mahsulidir. Jumlada, g'arblik ayrim tadqiqotchilar islom tafakkuri o'rta asrlar Yevropasidagi harbiy asirlarning huquqiy maqomini belgilashga o'zining muayyan ta'sirini o'tkazgan degan xulosaga kelishgan» (Syukiyaynen L.R., 2014:81). Afsuski, bunday e'tiroflar tarqoq hollardagina uchraydi. Shuning uchun ham ushbu tarixiy haqiqat yuzini qoplagan g'uborni tozalash hamda uning hamon dolzarb bo'lib qolayotgan hayotiy kuchini ochib berish bugungi tadqiqotchilarning burchidir. Hadisi shariflarda otanalarni yosh bolalarga mehribonlik va g'amxo'rlik ko'rsatish, to'g'ri aqida va sog'lom tarbiya asosida voyaga yetkazishga undaganlar: «Farzandingizdan dinimizda buyurilgan ishlarni qilishni va qaytarilgan narsalardan saqlanishni talab etinglar, shu ishlarning ularni oxirat azobidan saqlaganlarning bo'ladi» (Ibn Jarir rivoyati).

Kengroq mushohada yuritadigan bo'lsak, yosh avlodni yuksak insoniy fazilatlar sohibi qilib tarbiyalash nafaqat jamiyat, balki har bir oila va har bir ota-onaning ham asosiy vazifasidir. Istiqbolimizning dastlabki yillaridan boshlab hanafiy mazhabi asoslarini o'rganish va movarounnahrlik olimlarning ushbu mazhab rivojiga qo'shgan hissalarini tadqiq qilish va ommaga yetkazishga katta e'tibor qaratildi. Movarounnahrlik olimlar tomonidan Abu Hanifa va uning shogirdlari Muhammad ibn Hasan Shayboniy hamda Abu Yusufning asarlariga asoslangan holda juda ko'plab ilmiy risola va qo'llanmalar bitilib, ushbu mazhab taraqqiyotiga katta hissa qo'shildi.

Mashhur «Hidoya» asarining muallifi Burhoniddin Marg'inoniyning iste'dodli shogirdi Majduddin Muhammad ibn Mahmud ibn Husayn Usturshaniyning «Jome' ahkom as-sig'or» (Voyaga yetmagan bolalarga taaluqli shar'iy hukmlar majmuasi) asari shunday asarlar sirasiga kiradi. «Jome' ahkom as-sig'or» asari shu paytgacha hanafiy mazhabi asosida bolalarning haq-huquqlari xususida yozilgan eng yirik fiqhiy asarlardan biri sifatida e'tirof etilgan. Ushbu asar fiqh (islom huquqi)ga oid yuzga yaqin manbalarda tarqoq holda keltirilgan, yosh bolalarga taaluqli shar'iy fatvolar va hukmlarni jamlagan. Majduddin Usturshaniy o'z davrigacha yashab, ijod etgan hanafiy mazhabiga mansub barcha faqihlarning fiqhiy fatvolarini o'rganib, voyaga yetmagan yosh bolalarga taaluqli masalalarni to'plab, alohida kitob shakliga keltiradi.

E'tibor berishimiz lozim bo'lgan asosiy fikr shundan iboratki, bola huquqqa asoslangan ilk fundamental va mukammal asar G'arb olamida emas, balki Movarounnahrda. Zero, bu asar G'arb dunyosidagi inson huquqlari masalasiga bag'ishlangan nazariy konsepsiyalar shakllanishidan taxminan to'rt yuz, bola huquqlariga oid ilk normalar paydo bo'lishidan esa, olti yuz yil avval yozilgan. Boshqacha aytganda, antik davrda ko'tarilgan insonning tabiiy huquqlari haqidagi g'oyaga G'arbda qayta murojaat qilinishidan anchagina muqaddam Sharqda uni ro'yobga chiqarishning mukammal mexanizmlarini shakllantirilgan edi. Zero, fatvo instituti asrlar davomida musulmon jamiyati hayotini tashkillashtirishning shariatga muvofiq asoslangan muvofiqlashtiruvchi mexanizmi vazifasini bajarib kelgan, fatvolar ijtimoiy va individual ahamiyatga molik katta-kichik muammolar yechimining huquqiy-me'yoriy mezonlari sifatida amal qilgan.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, o'rta asrlar va keyingi tarixiy davrlarda ham norasidalar huquqlariga

bag'ishlangan alohida asar yozilgani ma'lum emas. Bu Majduddin Muhammad Usturshaniy asarining ilmiy qiymatini yanada oshirib, uni inson huquqlarining muhim segmentlaridan birini tashkil etiladigan yuvenal huquq, ya'ni bolalar huquqi ilmiy yo'nalishining shakllanishi tarixi bo'yicha benazir manbaga aylantiradi. Rasululloh (s.a.v.)ning: «Bolalaringizga odob beringlar va odoblarini chiroyli qilingiz», degan hadislaridan anglaymizki, bolalarni har tomonlama yetuk va barkamol e'tibor qaratiladi. Boshqa bir hadisda: «Birorta ota o'z farzandiga xulq odobidan afzalroq meros berolmaydi», deb marhamat qilingan. Bu esa bolaning yosh paytidanoq uning odob-axloqi, tarbiyasi bu muhim ish ekani va ularning huquqlarini hurmat qilish lozimligini ko'rishimiz mumkin. Sharqning ulug' mutafakkiri va donishmandi Abu Ali ibn Sino farzand tarbiyasi haqida vasiyat qilib, shunday degan edi: «Yosh bola o'qiydigan joyda odob-axloqli, turish-turmushi namunalari bolalar bo'lishi lozim. Chunki, yosh bola har bir narsani ularga taqlid qilib o'rganadi va ular bilan do'st bo'ladi».

XULOSA

Inson huquqi islom ta'limotida muhim o'rin egallaydi. Qur'oni karim va hadisi shariflarda inson qadr-qimmatini, haq-huquqlari masalasiga keng o'rin berilgan. Unda insonning shaxsiy, ijtimoiy huquqlari shariat qonun-qoidalariga asosida bayon qilingan. Bunda yer yuzidagi barcha insonlarning Alloh oldida tengligi, har bir insonga Alloh tomonidan berilgan ne'matlardan barobar foydalanishi zarurligi belgilangan. Islom huquqida ota-ona haqini ado qilish, farzandning ota-onasi oldidagi va ota-onaning farzandi oldidagi haq-huquqlari, ziyorat qilish, turar joyga ega bo'lish va boshqa haq-huquqlari hadislarda qayd etilgan. Hadisi shariflarda insonning qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'yimaslik, uning sha'ni va obro'siga tajovuz qilmaslik, har kimning sir saqlashi, erkin fikr yuritishi, erkin so'zlashi singari shaxsiy huquqlari bilan birga uning mulkka ega bo'lishi, turar joyli bo'lishi, daxlsizligi singari turli xildagi ijtimoiy huquqlari shariat talablariga va qonunlariga muvofiq tarzda himoya qilinishi zarurligi o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy xususiyati «shaxs – jamiyat – davlat» o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratligi bilan xarakterlanadi. Demak, avvalo, inson (fuqaro)ning manfaati va ehtiyojlariga ustunlik beriladi. Davlatning uchinchi

o'ringa qo'yilishi uning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini belgilashga asos bo'ladi. Buning ma'nosi shuki, davlat o'z faoliyati bilan fuqarolarga va jamiyatga xizmat qiladi. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson huquqiga tegishli bo'lgan davlatning inson huquqlari va erkinliklarini tan olish va himoya qilish majburiyati, inson (fuqaro) huquqlari va erkinliklari xalqaro-huquqiy andozalarga mos bo'lishi va bu sohada xalqaro huquqning milliy qonunchilikdan ustun turishi, inson huquqlari insonga tabiatan tegishli bo'lishi, barcha fuqarolarning bir xildagi huquq va erkinliklarga egaligi, ularning tengligi hamda barchaga barobar taalluqliligi, inson (fuqaro) huquqlari tizimi davlat organlari vakolatini belgilash va chegaralash mezonlari ekanligi, fuqarolarning huquq va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shartligi kabi xalqaro huquqning asosiy tamoyillari o'z ifodasini topgan.

МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yiliga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2019-yil 9-dekabr.
2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. (2019). Iymon. Toshkent: Hilol-Nashr.
3. Rustambayev M.X. (2022). Inson huquqi. Toshkent: Yuridik publish.
4. Saidov A.H. (2004). Hozirgi zamon asosiy huquq tizimlari. Toshkent: Adolat.
5. Matkarimova G.S. (1998). Xalqaro va milliy huquqda ayollarning gender va reprodaktiv huquqlari: Yurid. fan. dokt...dissertatsiya. Toshkent.
6. Kurakov L.P., Kurakov V. L., Kurakov A. L. (2004). Ekonomika i pravo: slovar-spravochnik. Moskva: Vuz i shkola.
7. Yusupova N.J., Mamadiyev B.B., Xaydarov M.M. (2022). Islomda gender tenglikning o'ziga xos tamoyillari. Toshkent: Baktaria press.
8. Jo'zjoniy A.Sh. (2002). Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va Markaziy Osiyo faqihlari. Toshkent: Toshkent islom universiteti.
9. Hugo Grosius. (2005). The Rights of War and Peace, edited and with an Introduction by Richard Tuck, from the Edition by Jean Barbeyrac. Indianapolis: Liberty Fund. 1 vol.
10. Atayev M. (2021). Islomda bolalar huquqi. Toshkent: O'zbekiston.
11. Syukiyaynen L.R. (2014). Islam i prava cheloveka v dialoge kultur i religiy. Moskva.

REFERENCES

1. Speech of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev at the solemn ceremony dedicated to the 27th anniversary of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. //Khalq so'zi, December 9, 2019.
2. Shaykh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. (2019). Iymon. Toshkent: Hilol-Nashr.
3. Rustambayev M.Kh. (2022). Inson huquqi. Tashkent: Yuridik publish.
4. Saidov A.H. (2004). Hozirgi zamon asosiy huquq tizimlari. Tashkent: Adolat.
5. Matkarimova G.S. (1998). Xalqaro va milliy huquqda ayollarning gender va reprodaktiv huquqlari: Dissertation. Tashkent.
6. Kurakov L.P., Kurakov V. L., Kurakov A. L. (2004). *Ekonomika i pravo: slovar-spravochnik*. Moskva: Vuz i shkola.
7. Yusupova N.J., Mamadiyev B.B., Xaydarov M.M. (2022). *Islomda gender tenglikning o'ziga xos tamoyillari*. Tashkent: Baktoria press.
8. Jo'zjoniy A.Sh. (2002). *Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va Markaziy Osiyo faqihlari*. Tashkent: Tashkent Islamic University.
9. Hugo Grosius. (2005). *The Rights of War and Peace*, edited and with an Introduction by Richard Tuck, from the Edition by Jean Barbeyrac. Indianapolis: Liberty Fund. 1 vol.
10. Atayev M. (2021). *Islomda bolalar huquqi*. Tashkent: O'zbekiston.
11. Syukiyaynen L.R. (2014). *Islam i prava cheloveka v dialoge kultur i religiy*. Moscow.. Moskva.

